

YOZMA NUTQNI BAHOLASH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH**Nurullayev Aloviddin Amrullayevich**

ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi fakulteti magistri, E-mail: alovuddin.nurullayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozma nutqni baholash mezonlari tahlil qilindi. Diktant, insho va bayon yozma ish shakllari esse yozish shartlari bilan qiyosiy o‘rganildi. Yozma nutqni baholashda o‘quv dasturlari qo‘ygan talablar taqqoslab chiqildi. O‘quvchilar yozma nutqini oshirish topshiriqlari tahlili berildi.

Kalit so‘zlar: nutq, yozma nutq, baho, nutqni baholash, diktant, insho, bayon, esse, esse turlari.

Abstract. This article analyzed the criteria for evaluating written speech. The forms of dictation, essay and narrative written work were compared with the conditions of essay writing. The requirements set by educational programs in the assessment of written speech were compared. An analysis of tasks to improve students' written speech was given.

Keywords: speech, written speech, assessment, speech evaluation, dictation, essay, statement, essay, essay types.

Ona tili o‘qitishning bosh maqsadlaridan biri o‘quvchilar nutqini o‘stirishdir. Nutq ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: og‘zaki va yozma shaklda. O‘quvchilar yozma nutqini baholashda an‘anaviy tarzda diktant, insho, bayon topshiriqlaridan foydalanib kelinadi. Keyingi yillarda esse tushunchasi ham kirib keldi. Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta‘limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi. O‘quvchining ona tili ta‘limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. (Uzviylashtirilgan Davlat ta‘lim standarti, 2010, 12 – bet)

Ona tili fanidan o‘quv dasturi loyihasida (Toshkent – 2017) 9-sinflarda yozma nutq uchun talablar: tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushuna oladi; so‘z, ibora va atama (termin)larning ma‘nosini tushunib to‘g‘ri o‘qiy oladi; fikrini so‘z va gaplarni mantiqiy bog‘lagan holda, to‘g‘ri va ravon bayon qila oladi; so‘z va gaplarni bog‘lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila oladi; 140 — 160 so‘zdan iborat diktantni yoza oladi, 20 — 25 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi, -bayonga reja tuza oladi, epigraf tanlay oladi; - matnda badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalana oladi.

Umumiy o‘rta ta‘limning milliy o‘quv dasturi loyihasida (Toshkent – 2020) 9-sinflarda yozma nutq uchun talablar: berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o‘z fikr va hissiyotlarini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 18–20ta gapdan iborat matn yoza olish;

husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda 160 – 180ta soʻzdan iborat diktant yoza olish.

Yuqoridagi talablarni tahlil qiladigan diktant yozish talablari aniq belgilangan boʻlsa-da, oʻquvchilarning matn yoza olish qobiliyatlarini baholab bera olmaydi. Insho yozishda esa gaplar soniga qaratiladi. Lekin gap birgina soʻzdan ham iborat boʻlishi mumkin. Sodda yigʻiq gaplar bunga misol boʻla oladi. Bundan tashqari insho mavzusi umumiy berilishi baholashda qiyinchilik tugʻdiradi. Yozma nutqni baholashdagi insho mavzularidan:

Zahiriddin Muhammad Bobur – shoh va shoir.

Til – millat koʻzgusi

Alisher Navoiy – gʻazal mulking sultoni

Endi yozma nutqni baholashdagi xalqaro mezonlari koʻrib oʻtsak:

IELTS – (The International English Language Testing System) yozish koʻnikmasi sinovi: (davomiyligi 60 daqiqa) birinchi topshiriqda grafik, jadval, sxema yoki diagrammani tasvirlab kamida 150 soʻzdan iborat matn yozish talab etiladi. Ikkinchi topshiriqda esa imtihon topshiruvchilar kamida 250 soʻzdan kam boʻlmagan esse yozishlari talab etiladi.

Birinchi turdagi esselar rasm koʻrishidagi chizma, jadvallarni tushunishi va uni aniq uslubda yozishi talab qilinadi.

Ikkinchi turdagi esselarda oʻquvchilarga qisqa shakldagi muammolar matni va topshiriq beriladi.

Esseni baholash tizimi:

	4	3	2	1
Mavzuning ochib berilishi	Qoʻyilgan savol toʻla ochib berilgan	Qoʻyilgan savol qisman ochib berilgan	Qoʻyilgan savolning faqat bir qismi ochib berilgan	Qoʻyilgan savol ochib berilmagan
Uslub	Tanlangan uslub topshiriqqa toʻla mos	Tanlangan uslub topshiriqqa toʻla mos, ayrim oʻrinlarda uslubdan chekinishlar kuzatilishi mumkin	Tanlangan uslub topshiriqqa qisman mos, koʻp oʻrinlarda uslubdan chekinishlar kuzatiladi	Tanlangan uslub topshiriqqa mos emas
Grammatika	Grammatik xatolar uchramaydi,	Ayrim grammatik xatolar	Ayrim oʻrinlardagi grammatik	Grammatik qoidalariga rioya

	turli grammatik strukturalardan o'z o'rnida foydalanilgan	uchraydi, lekin ular mazmunga ta'sir qilmaydi	xatolar mazmunni tushunishni qiyinlashtiradi	qilinmagan
So'z boyligi	So'z tanlashda xatoliklar uchramaydi, turli leksik vositalardan o'z o'rnida foydalanilgan	So'z tanlashda ayrim xatoliklar uchraydi, lekin ular mazmunga ta'sir qilmaydi	So'z boyligi cheklangan, so'z tanlashdagi xatoliklar mazmunni tushunishni qiyinlashtiradi	So'z boyligi juda cheklangan
Matn yaxlitligi	Matn izchil, mantiqiy bog'langan, bog'lovchi vositalardan o'z o'rnida foydalanilgan	Matn izchil, ayrim o'rinlarda mantiqiy bog'lanish buzilgan, bog'lovchi vositalarni ishlatishda ayrim xatoliklar kuzatiladi	Aksar hollarda mantiqiy bog'lanish buzilgan, bog'lovchi vositalardan noo'rin qo'llanilgan	Matn uzun-yuluq, bir-biriga bog'lanmagan gaplardan iborat

Yozma nutqni baholash yuzasidan 9-sinf o'quvchilaridan 15 nafari orasida kichik tajriba o'tkazildi. O'tkazilgan tajriba natijalari:

1. O'n besh nafar o'quvchidan o'n bittasi erkin mavzudagi insho yozishni ma'qul ko'rishdi. Chunki adabiy va adabiy-ijodiy mavzudagi insholar o'quvchidan shu mavzu yuzasidan chuqur bilimni talab qiladi. O'quvchilar shu sababli insho yozishda ko'pincha erkin mavzudagi insholarni tanlashdi.

2. Qolgan uch nafari Alisher Navoiy mavzusida, bittasi Zahiriddin Muhammad Bobur haqida yozishdi. Barcha o'quvchilarda reja tuzishda qiyinchiliklar kuzatildi.

3. Insho yozishda dastlab xomaki (qoralama) nusxaga yozish, keyin uni ko'chirishda vaqt tanqisligi yuzaga kelishi, 45 minut vaqt ichida ulgurish qiyinligi aniqlandi.

4. O'quvchilar insho qaysi uslubda yozilishini aniq bilishmaydi. Ko'pchiligi badiiy uslubdan, ayrimlari so'zlashuv va rasmiy uslub vositalaridan foydalanishdi.

5. Insho baholanganda yetarli darajada izoh berilmaydi. Natijada o'quvchida qo'shimcha savollar paydo bo'ladi.

Yozma nutqni baholash yuzasidan tavsiyalar:

Esse va insho yozishda o'quvchilar yozma nutq malakalarini namoyish etadilar, o'zlarining tafakkur kuchi va nutq boyliklariga suyanadilar.

Bu esse bilan inshoning o'xshash tomonlaridir. Ular o'rtasidagi farq shundaki, agar esse ta'limiy xarakterda bo'lsa, matn yoki rasmi topshiriq berilgach, o'quvchilar uning qisqacha mazmunini yozishga kirishadilar. Bayonda esa o'quvchilarga matn o'qib beriladi. Insho yozishda faqat mavzu tavsiya etiladi. Mavzu bo'yicha reja tuziladi va o'quvchilar shu reja bo'yicha o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalaydilar.

Esseni tekshirishda kim qayerda, qanday xatolarga yo'l qo'yganligini aniqlash, xatolarni turlarga bo'lib, ularni tuzatish yo'llarini o'quvchilarga ko'rsatish xalqaro tajribada sinalgan usul hisoblanadi.

Yozma nutqni baholashdagi xorijiy tajribalarga asoslanadigan bo'lsak, insho o'rniga essedan foydalanish samaraliroq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumta'lim fanlaridan davlat ta'lim standarti Toshkent – 2010
2. Ona tili fanidan o'quv dasturi loyihasi Toshkent – 2017
3. Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi loyihasi Toshkent – 2020